

TARIX O'QITISH METODIKASINING ASOSIY PRINSIPLARI**Sharapatova Aykumis Askarovna**

2-kurs bakalavri

Ajiniyoz nomidagi NDPI

(Nukus, Qoraqalpog'iston Respublikasi)

*aykumissharapatova60@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14941580>*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix o'qitish metodikasining mohiyati, ahamiyati va asosiy prinsiplari tahlil qilinadi. Tarix fani o'quvchilarda tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini anglash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'yndaydi.

Maqolada tarix o'qitishda ilmiylik, tarixiylik, tizimlilik va izchillik, faollik va mustaqillik, hayotiylik va amaliyat bilan bog'liqlik, integratsiya hamda tarbiyaviylik prinsiplari batafsil yoritilgan. Ushbu prinsiplardan samarali foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tarixiy jarayonlarni to'g'ri anglash va ulardan xulosalar chiqarishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tarix o'qitish metodikasi, ilmiylik prinsipi, tarixiylik prinsipi, tizimlilik va izchillik, faollik va mustaqillik, hayotiylik, amaliyat bilan bog'liqlik, integratsiya, tarbiyaviylik, milliy o'zlik, vatanparvarlik, tarixiy ong, pedagogik texnologiyalar.

BASIC PRINCIPLES OF HISTORY TEACHING METHODOLOGY

Abstract. This article analyzes the essence, significance, and basic principles of the methodology of teaching history. Along with the development of students' skills in understanding, analyzing, and evaluating the causes and consequences of historical events, the subject of history plays an important role in the formation of national identity and a sense of patriotism. The article details the principles of scientificity, historicity, systematicity and consistency, activity and independence, vitality and connection with practice, integration and upbringing in teaching history. Effective use of these principles contributes to the development of students' ability to think independently, correctly understand historical processes, and draw conclusions from them.

Keywords: methodology of teaching history, the principle of scientific approach, the principle of historicity, systematicity and consistency, activity and independence, vitality, connection with practice, integration, educational value, national identity, patriotism, historical consciousness, pedagogical technologies.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ

Аннотация. В данной статье анализируется сущность, значение и основные принципы методики преподавания истории. Наряду с развитием у учащихся навыков

понимания, анализа и оценки причин и следствий исторических событий, история играет важную роль в формировании национального самосознания и чувства патриотизма. В статье подробно освещены принципы научности, историчности, системности и последовательности, активности и самостоятельности, жизненности и связи с практикой, интеграции и воспитания в преподавании истории. Эффективное использование этих принципов помогает учащимся развивать самостоятельное мышление, правильно понимать исторические процессы и делать из них выводы.

Ключевые слова: методика преподавания истории, принцип научности, принцип историчности, системность и последовательность, активность и самостоятельность, жизненность, связь с практикой, интеграция, воспитательность, национальное самосознание, патриотизм, историческое сознание, педагогические технологии.

Tarix fani insoniyatning o'tmishini o'rganish, bugungi kundagi voqealar mohiyatini anglash va kelajakni bashorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, tarixni to'g'ri va samarali o'qitish jamiyatning ma'naviy yuksalishiga, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga va yosh avlodda milliy o'zlikni anglashga ko'mak beradi. Shuning uchun, tarix o'qitish metodikasi o'ziga xos ilmiy va pedagogik prinsiplar asosida qurilishi kerak.

Ushbu maqlada tarix o'qitish metodikasining asosiy prinsiplari batafsil ko'rib chiqiladi.

Tarix o'qitish metodikasining mohiyati va ahamiyati

Tarix o'qitish metodikasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaqidagi o'zaro ta'sir jarayonini boshqarish, bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun turli pedagogik usullarni qo'llash san'atidir.

Bu metodika o'quvchilarda tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini anglash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tarixni o'qitishda nafaqat faktlarni yodlash, balki ularni tahlil qilish, mantiqiy bog'liqliklarni anglash, tarixiy jarayonlarning davriyligini tushunish kabi jihatlarga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, tarix o'qitish metodikasi milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish va global tarixiy jarayonlar haqida keng tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi. Shu boisdan, tarix o'qitishda faqat matnli manbalardan foydalanish emas, balki multimedia vositalari, interaktiv usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish talab etiladi.

Tarix fani insoniyatning o'tmishini o'rganish, jamiyatlarning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish va hozirgi kundagi voqealarning ildizlarini anglash imkoniyatini beradi. Shu bois, tarixni o'qitish nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularni vatanparvarlik ruhida shakllantirishda ham muhim rol o'yinaydi. Bu jarayonda tarix o'qitish metodikasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy ongni shakllantirish o'quvchilarni nafaqat o'tmishdagi voqealarni o'rghanishga, balki ularni tahlil qilishga, sabab-natija bog'lanishlarini anglashga va tarixdan saboq olishga o'rgatadi.

Tarixiy ong shaxsda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, tarixiy ong jamiyatning rivojlanishini to'g'ri anglash, hozirgi davr muammolarini tahlil qilish va kelajakda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

Tarix o'qitish metodikasining mohiyati

Tarix o'qitish metodikasi bu tarixiy bilimlarni o'quvchilarga samarali yetkazish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanish, voqealarning sabab-oqibatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu metodika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini boshqaradi va o'quvchilarda tarixiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Tarix o'qitish metodikasi quyidagi ahamiyatga ega:

- O'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi;
- Tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlaniradi;
- Global tarixiy jarayonlarni anglash orqali o'quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantiradi;
- Tarixiy xotirani mustahkamlash va o'zligini anglashga yordam beradi

Asosiy prinsiplari

Tarix o'qitish metodikasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiylik prinsipi:

Tarixiy voqealar ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bu prinsipga ko'ra, o'qituvchi faqat ishonchli va ilmiy manbalarga tayangan holda ma'lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, tarixiy hodisalarining obyektivligi saqlanishi kerak. Afsonalar, rivoyatlar va diniy tushunchalar tarixiy haqiqat sifatida emas, balki madaniy meros sifatida ko'rildi. Tadqiqot ishlari va arxeologik kashfiyotlar natijalariga asoslangan ilimiyl faktlar taqdim etiladi.

2. Tarixiylik prinsipi:

Tarixiy voqealar vaqt ketma-ketligiga ko'ra o'rganiladi. Bu prinsip orqali o'quvchilar voqealarning davriyilagini anglaydilar, ularning sabab va oqibatlarini o'zaro bog'lay olishadi.

Tarixiy voqeolarni o'z davrnining sharoitlarini hisobga olgan hold ava tarixiy shaxslar faoliyati va ularning o'z davriga qanday ta'sir qilganligi o'rganiladi.

Voqealarning sabab-na'tiyja bog'lanishlari tahlil qilish, o'rgatish orqali o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda yordam beradi. Prinsip orqali o'quvchilar voqealarning davriyligini anglaydilar, ularning sabab va oqibatlarini o'zaro bog'lay olishadi.

3. Tizimlilik va izchillik prinsipi:

Bilimlar tartib va mantiqiy izchillikda o'zlashtiriladi. Har bir yangi mavzu avvalgi bilimlarga tayangan holda tushuntirilib, tarixiy bilimlar o'quvchilarda tizimli tarzda shakllantiriladi. Ya'ni bir mavzu boshqasi bilan uzviy bog'liq holda o'rgatiladi. Mavzular ketma-ketligi mantiqiy izchillikka ega bo'lib, tarixiy jarayonlarni rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Bu prinsip orqali o'quvchilar tarixiy voqealarni umumiy tizimda ko'rib chiqadilar.

4. Faollik va mustaqillik prinsipi:

O'quvchilar faollashtiriladi va mustaqil fikrashga undaladi. va mustaqil fikrashi, tahlil qilishi va baholash uchun sharoit yaratadi. Shuningdek ular asosida xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirish uchun yordam beradi. Munozaralar, babs-munozaralar va guruhiy ishlarda ishtirok etish orqali o'quvshilar o'z fikrlarini asoslashni o'rganadilar va ushbu prinsip o'z nuqtai nazarini bildirish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Hayotiylik va amaliyot bilan bog'liqlik prinsipi:

Tarixiy bilimlar amaliy hayot bilan bog'lab, tarixiy voqealarning bugungi kunga ta'sirini tushuntirish orqali o'quvchilar hozirgi zamon hodisalarni chuqurroq anglaydilar va bugungi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'tmish voqealari bilan bog'lanib tushuntiriladi. Milliy qadriyatlar, madaniyat va an'analar tarixiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Bu esa o'quvchilarda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

6. Integratsiya va fanlararo bog'liqlik prinsipi:

Tarix o'qitishda boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'qitishni nazarda tutadi.

Bu prinsip o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va ularni yaxlit holda qabul qilishiga yordam beradi. Ushbu prinsipning ahamiyati: Bilimlarni o'zlashtirish darajasini belgilaydi. Tarix faqat o'tmishni o'rganish bilan cheklanib qolmay, boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilganda, o'quvchilar bilimlarni yaxlit holatda qabul qiladilar. Masalan: tarixda qadimiy sivilizatsiyalarni o'rganayotganda, ularning geografik joylashuvi (geografiya), me'morchilik uslublari (san'at), yozuvlari (adabiyot) va iqtisodiy tizimlari (iqtisodiyot) bilan bog'lab tushuntirish mumkin.

7. Tarbiyaviylik prinsipi:

Tarix o'qitishda o'quvchilarda axloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan asosiy tamoyildir. Bu prinsip nafaqat bilim berishni, balki yosh avlodni yuksak ma'naviyatli va komil insonlar qilib tarbiyalashni ham maqsad qiladi.

Tarbiyaviylik prinsipi maqsadlari:

1. Vatanparvarlikni shakllantirish: O'quvchilarda o'z tarixini bilish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va Vatanga sadoqat tuyg'ularini rivojlantirish. Milliy qahramonlar hayoti va jasoratlari orqali o'quvchilarga vatanparvarlik va fidoyilik fazilatlarini singdirish. Masalan, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarning faoliyatini o'rganib, ular orqali milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini uyg'otish.

2. Axloqiy tarbiya berish: Tarixiy voqealar va shaxslar hayotidan namunalar keltirib, halollik, adolat, jasorat, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish. Tarixdan ibratli voqealarni o'rganib, yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, halollik va xiyonat kabi tushunchalarni tahlil qilish.

3. Insonparvarlik va bag'rikenglikni tarbiyalash: Tarixiy voqealar orqali tinchlik, bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalarini shakllantirish. Turli xalqlar va madaniyatlar o'rtaсидаги о'заро алоқаларни о'рганиб, миллатлараро тотувлик ва bag'rikenglikni targ'ib qilish.

Masalan, qadimiy sivilizatsiyalarning madaniy almashinuvlarini o'rganish orqali o'quvchilarda turli madaniyatlarni hurmat qilishni tarbiyalash.

4. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish: Tarixiy voqealar orqali ma'naviy merosni qadrlash, milliy urf-odatlar va an'analarga hurmatni shakllantirish. Milliy bayramlar, an'anaviy marosimlar, tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklar haqida bilim berish orqali ma'naviyatni boyitish.

5. Ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish: O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, faol fuqarolik pozitsiyasi va Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish istagini rivojlantirish.

Davlat arboblari va jamoat yetakchilarining faoliyatini o'rganib, o'quvchilarni ijtimoiy faollikkka undash.

Tarix o'qitish metodikasining asosiy prinsiplari va usullari o'quvchilarni nafaqat tarixiy faktlarni bilishga, balki ularni tahlil qilish, umumlashtirish va o'z nuqtai nazarini bildirishga o'rgatadi. Shu bilan birga, bu prinsiplar o'quv jarayonini samarali tashkil etishga, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarix o'qitish metodikasi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir etuvchi omil bo'lib, yosh avlodning madaniy va ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Mohiyati va ahamiyati shundaki, u nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tarixiy voqealarni tahlil qilishga va ulardan xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Shu bilan birga, bu metodika yosh avlodni milliy qadriyatlarni hurmat qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarix o'qitish metodikasini samarali tashkil etish esa, o'qituvchining pedagogik mahoratiga va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalana olishiga bog'liq.

REFERENCES

1. Karimov M. 'Tarix o“qitish metodikasi', Toshkent, 2020.
2. Yusupov A. 'Pedagogik texnologiyalar va metodikalar', Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlari va dasturlari.
4. Umarov S. 'Tarix fani va metodikasi', Toshkent, 2021.
5. Internet manbalari: zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tarixiy ta'lim portallari.